

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**RAQAMLI XIZMATLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI
ILMIY MODELINING AHAMIYATI**

Alimova Dildora Damirovna

Tayanch doktoranti, BuxMTI, email: dildora.alimova.2017@mail.ru

НАУЧНАЯ МОДЕЛЬ СФЕРА УСЛУГ В ЦИФРОВЫХ УСЛУГАХ

Алимова Дилдора Дамировна

Докторант, БухИТИ, email: dildora.alimova.2017@mail.ru

SCIENTIFIC MODEL OF SERVICE SECTOR IN DIGITAL SERVICES

Alimova Dildora Damirovna

Foundation doctoral student, BukharaETI,

Har bir mamlakat rivojlanishning muqobil usullarini izlashga harakat qiladi va shu orqali mamlakatda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan texnika yutuqlaridan unumli foydalanadi. Bizning mamlakatimiz ham, dastlabki kunlardan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar va usullardan maqsadli foydalandi [1]. Biroq, aholi talabining turlicha o'zgarishi oqibatida, resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunga kelib, mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va keng ko'lamda foydalanish kerak ekanligini ko'rsatmoqda. [2].

Bizning nazarimizda innovatsiya va raqamli iqtisodiyot, bozor iqtisodiyotining zamonaviy kategoriyalari sanaladi. [3]. Bu kategoriyalar ichida raqamli iqtisodiyot xizmatlarning aksar qismini shakllantiradi. Shu sababli bizlar "Innovatsiya" va "Raqamli iqtisodiyot" kategoriyalarini nazariy jihatdan alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik. [4].

Buyuk iqtisodchi Adam Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o'zining jahonga mashhur "Xalqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti" nomli asarida «unumli mehnat» va «unumsiz mehnat» tushunchalari xususida fikr bildirgan [5]. Shu orqali A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaratilishiga katta hissa qo'shgan.

"Xizmat" atamasi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda taniqli olimlardan biri F.Kotler bo'lib, u xizmatga quyidagicha ta'rif beradi: "Xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdir"[6].

Respublikamizning taniqli olimlaridan I.S.Tuxliev: "Xizmatlar - bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir" [7] deydi va ushbu yondashuvda olim xizmatni tovar xususiyatini ifodalagan, ya'ni, xizmatlar ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

jarayonlaridagi mehnat munosabatlarini o'zida aks ettiradi, ammo ishlab chiqarish jarayoni natijasi nomoddiy shaklga ega bo'ladi deb ta'kidlashga harakat qiladi.

Xizmat tushunchasiga I.Ochilov tomonidan berilgan ta'rif boshqalariga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan takomillik kasb etgan va u quyidagi shaklda berilgan: "Xizmat deyilganda, insonning, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi" [8].

Bizning nazarimizda xizmat - bu ma'lum tomon tarafidan yo'naltirilgan o'z qiymatiga ega bo'lgan nomoddiy ko'rinishdagi harakat yoki, mehnat mahsuli tushuniladi. [9].

Bugungi kunda xizmat turlarining kengayishi kishilik jamiyatida talab va ehtiyojning kuchli ta'sir doiraga ega bo'layotganligini ko'rsatadi. [10]. Xizmatlar Iqtisodchi olimlar tomonidan xizmat ko'rsatish sohasining mazmun mohiyatini ochishga urinish nazariy-mantiqiy ahamiyati hususida ko'plab ilmiy-fikr mulohazalar bildirganlar. [11]. Ammo, ular evalyusion modelini yaratishmagan. Shu sababli bizlar xizmat va xizmat ko'rsatish sohasining evalyusion modelini yaratildi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki xizmat dastavval ibtidoiy jamoa davrida shakllangan bo'lib, shaxsning o'ziga-o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik oila qurish qabilalarning kengayishi, manfaatlar to'qnashuvi asosida, turli maqsadlarni ko'zlagan holda, yordamchi kuchlarga ehtiyoj sezildi. Bu esa xizmat ko'rsatish yaralishiga, xizmat ko'rsatish esa xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda 1-rasmda keltirilganidek raqamli xizmatlar iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olish darajasi yuqoriligini bildiradi. Bu esa xizmatlar sohasi iqtisodiyotning asosiy sektorlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Xizmatlar faoliyatidagi o'zgarishlar dunyo iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylandi.

• **Xizmat (dastlabki ibtidoiy shakl)**

- Shaxsiy qorin to'yg'azishga urinish
- O'zini o'zi himoya qilish
- Ovchilik (yakka manfaat uchun)
- Rasm chizish, turli qurollar yasashning dastlabki shakllari
- O'zini-o'zi davolash

• **Xizmat ko'rsatish**

- Qorinto'yg'azish uchun jamoaviy maqsad uchun birlashish
- Yollanma jangchilar, ovchilar, uy xizmatkorlari
- O'zi yoki boshqa birovning talabiga ko'ra rasm chizish, rassomchilik qilish shu kabilar

- Manfaat uchun yollanma faoliyatning barcha ko'rinishlari

- Ta'lim berish, tabiblik qilish

- Boshqa birovlar uchun qurol yasash, kiyim tikish, uy qurish va shu kabilar

• **Xizmat ko'rsatish sohasi**

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

- Ta'lim sohasi
- Sog'liqni saqlash sohasi
- Turizm sohasi
- Bank, moliya va sug'urta xizmatlari sohasi
- Transport xizmatlari sohasi
- Aloqa xizmatlari sohasi
- Kommunal va maishiy soha
- Ma'daniy multimedia, audio-video televideniya, dasturiy ta'minot sohasi

- **Raqamli xizmatlar**

- Ta'lim sohasidagi onlayn darslar, elektron darsliklar, elektron jurnallar, maxsus pedagogik vositalar va boshqa shu kabilar
 - Sog'liqni saqlash sohasidagi kasallikni aniqlashda foydalaniladigan barcha maxsus apparatlar, onlayn maslahatlar, moslashtirilgan web-dasturlar va boshqalar
 - Sayyohlik, dam olish, safar qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etadigan dasturiy ta'minotlar
 - Mobil qurilmalar, bankomat, elektron dasturiy vositalar va elektron pullar shu kabilar
 - Internet, aloqa liniyalari, router, kabellar, to'lqin tarqatuvchi qurilmalar va shu kabilar
 - Brouzer, web-sayt, maxsus portallar, elektron hukumat, mo'ljallangan dasturlar

1-rasm. Xizmatlar sohasining evolyusion modeli

Manba: Ishlanma ilmiy izlanishlar natijasi asosida muallif tomonidan tuzilgan

O'zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar rivojlanishiga asosiy qadam bo'lib 2015 yil 9 dekabrda "Elektron hukumat" to'g'risidagi O'RQ-395-son qonuni qabul qilinganligini aytishimiz mumkin. Ungacha "Elektron raqamli imzo", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, qonunlari raqamli xizmatlarning rivojlanishiga asosiy poydevor vazifasini bajardi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy muhitni yaxshilash, dinamik faoliyatni oshirish uchun xizmat qildi.

Xizmat ko'rsatish sohasini [12]. nazariy tarixiy tahlil etish, olimlarning ilmiy qarashlari orqali zamonaviy xizmatlar sohasining evalutsion madelga solish va undan quyidagi hulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Xizmatlarning mazmun mohiyatini yoritishda olimlar tomonidan tarixda juda ko'plab ilmiy qarashlar uchraydi. [13]. A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaralishiga katta xissa qo'shgan. Bu esa xizmat ko'rsatish sohasi aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda muhim vositalardan biri bo'lganligidan dalolat beradi [14].;

2. Iqtisodiyot sohasidagi olimlarning ilmiy qarashlari va muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida yuqoridagi 1- chizmada xizmatlar sohasining evolyusion modeli uning mazmun mohiyatini to'la kasb etganligi, global talabdan kelib chiqib aholining xohish istaklari

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

o'zgarayotganligi natijasida raqamli xizmatlar barcha xizmat ko'rsatish shaklini qamrab olayotganligidan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари” [Монография] /М.М.Мухаммедов [ва бошқалар] – Самарқанд: Zarafshon, 2017 йил.
2. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Ибодуллаев Н.Е., Амриддинова Р.С. Туризм асослари: Ўқув қўлланма – С.: СамИЦИ, 2010 - 247 б.
3. 5. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – Т. 3. – №. 2. [View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS \(sciencesage.info\)](#)
4. Musayeva J. K. O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O ‘RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 554-564.
5. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – Т. 8. – №. 5. [View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View](#)
6. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615>
DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
7. Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
8. Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 1434-1441.
9. Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. – 2019. – №. 44. – С. 22-25.
10. Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. – 2019. – №. 44. – С. 22-25.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

11. Мусаева Ж. К. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СТИМУЛИРОВАНИЕ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ //Интернаука. – 2018. – №. 22-1. – С. 63-65.

12. Мусаева Ж. К. РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ //Инновационное развитие. – 2017. – №. 4. – С. 70-71.

13. Мусаева Ж. К. СТРАТЕГИЯ И ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА //Ученый XXI века. – 2017. – С. 80.

14. Артикова Д. М., Юлдашева С. Н., Мусаева Ж. К. Роль предпринимательства, управления в совершенствовании экономического механизма хозяйствования //Економіка і управління національним господарством. – 2013. – №. 9. – С. 65.